



## SHAXS PSIXOLOGIYASI

**Ergasheva Mazluma Xusan qizi**

ChDPU Pedagogika fakulteti

Amaliy psixologiya 23/1guruh talabasi

ergashevamazluma@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15463050>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-may 2025 yil

Ma'qullandi: 18-may 2025 yil

Nashr qilindi: 19-may 2025 yil

### KEY WORDS

*Individ, shaxs, individuallik, ekstraversiya, intraversiya, temperament, qobiliyat, ehtiyoj va b.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada shaxs psixologiyasi fanining asosiy tushunchalari, shaxsning tarkibiy tuzilmasi, individual-psixologik xususiyatlari va ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shaxsni anglashda temperament, xarakter, qobiliyat, ehtiyoj va motivatsiya kabi omillarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. Maqolada G. Allport, K. Yunq, Z. Freyd kabi psixologlarning shaxsga oid nazariyalariga qisqacha sharh berilgan va ularning amaliyotdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, shaxs rivojiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Ushbu maqola shaxsning psixologik mohiyatini chuqurroq anglashni istagan talabalar, psixologlar va pedagoglar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Insonni psixologik jihatdan o'rganishda asosiy tushunchalardan biri bu — individ, shaxs va individuallikdir. Bu atamalar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, har biri o'ziga xos ma'no va mazmunga ega.

**Individ** — biologik mavjudot sifatida insonni anglatadi. Yani, inson tug'ilgani zahoti u individ sifatida mavjud bo'ladi. Bu bosqichda inson hali jamiyatda faol ishtirok etmaydi, lekin u jismoniy va genetik jihatdan boshqa odamlardan farqlanishi mumkin.

Masalan, chaqaloq — bu individ, chunki u hali shaxsiy xususiyatlarga ega emas, ammo biologik mavjudot sifatida mavjuddir.

**Shaxs** (lichnost) — bu jamiyatda yashayotgan, ijtimoiy tajribani egallagan va atrofdagilar bilan munosabatga kirisha oladigan ijtimoiy mavjudotdir. Inson vaqt o'tishi bilan, tarbiya, ta'lim, muomala va faoliyat orqali shaxsga aylanadi. Masalan, maktabda o'qiyotgan bola, oila va jamiyat qoidalarini tushunib, o'z nuqtayi nazariga ega bo'la boshlasa — u shaxs sifatida shakllanmoqda, deyiladi. **Individuallik** — bu shaxsning boshqalardan farq qiladigan noyob xususiyatlari, uslubi, dunyoqarashi va xatti-harakatidir. Har bir insonning ovozi, yuz ifodasi, fikrlash uslubi, muammolarga yondashuvi boshqalarnikidan farq qiladi. Bu farqlilik — individuallikdir.

Masalan, ikki shaxs bir xil kasbda ishlashi mumkin, ammo ularning ishlash uslubi yoki insonlarga munosabati turlicha bo'ladi.

Shunday qilib, inson rivojida individ → shaxs → individuallik ketma-ketligi kuzatiladi. Bu uchlik psixologiyada shaxsni tushunish va tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs qanday tarkib topishi uning yaxshi oila a'zosi yoki ota-ona bo'lishi, uning salomatligi ham hayotda egallaydigan karerasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxs hayotda o'zining imkoniyati va tanlovlarini cheklashi yo'lida kengaytirishi mumkin. U shaxsning boshqa insonlar bilan mavjud tajribalar almashuviga halaqit berishi yoki boshqalar uni ko'proq xizmat qilishiga olib keladi. Hayotda shunday toifa insonlar uchraydiki, ular boshqalarni o'ziga jalb eta oladigan yoqimli va xushmuomala bo'ladilar. Bunday insonlar bilan do'stlashishi, ular bilan do'st, qo'shni yoki hamkasb bo'lish xohishi paydo bo'ladi. Agar siz boshqaruvchi bo'lsangiz, u holda uni xodim sifatida tanlagan bo'lardingiz. Agar siz biror bir hayotiy qarorni qabul qilishga harakat qilsangiz munosabat o'rnatayotgan kishinngizni idrok etishingizga ko'ra muomala o'rnatasiz. Siz biladigan shunday mashhur insonlar borki, ular bilan munosabat o'rnatish ba'zan og'ir kechadi. Bunday qiyofali insonlar dushmanona, tajavuzkor, nodo'stona, yoqimsiz yoki qiyin munosabat o'rnatuvchilardir. Siz ular bilan muomala qilishda, xodim sifatida tanlashda o'zingizni chetga olasiz.

Shaxs psixologiyasining predmeti uni izohlashga nisbatan anchagina murakkab harakterga ega, chunki insonlar xilma xil bo'lganligi bois har xil vaziyatlarga qarab, o'zgarib turadilar. Shu sababli shaxsni tushunarli tilda izohlash uchun mos aniqlik va izohga ega bo'lish lozim. O'z navbatida shaxsni mos tarzda izohlashga mos keladigan tilga ham ega bo'lishi kerak. Oqibatda shaxsni o'rganishning o'ziga xos prinsiplari va baholash vositalari-testlarni shakllantirishga olib keldi.

Shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarning har bir muamumming o'ziga xos boshqotirma sifatida uning hal etishga e'tibor qaratganliklarini guvohi bo'lamiz. Hattoki, ayrim yondashuvlarni o'rganish esa o'nlab yillarni taqozo etadi. Shaxs psixologiyasi esa mazkur masalalarga javob qidiradi.

**Ongni o'rganish.** Shaxs muammosini o'rganish yondashuvining bir jihati uning ongini o'rganishga yo'nalganligidir. Psixologiya shaxsning ushbu jihatini o'rganishda tabiiy fanlarning metodlarini modifikatsiya qilish asosida erishdi. V.Vundt va boshqa psixologlar inson tabiatini hamda tabiiy-ilmiy fanlar ta'sirida insonning aqlini o'rganishda foydalandilar. Ushbu tadqiqotlarda psixik jarayonlar eksperimental o'rganilgan bo'lsada, ammo ularda cheklanishlar mavjud edi.

**Xulq-atvarni o'rganish.** 20-asrning dastlabki o'n yilligida ,amerikalik olim Djon B. Uotson biologik masalalarni o'rganishga e'tibor qaratdi va bu esa shaxs xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Vilgelm Vundtning qarashlariga zid edi. Uotsonning bu harakatlari bixeviorizm- deb nomlandi. U psixologiya inson tabiatining moddiy jabhalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdi. Uning g'oyasiga ko'ra, tashqi xulq-atvor psixologiyaning o'rganish asosi bo'ladi. Bu esa xulq-atvorni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Bixeviorizm esa inson tabiatini mexanik tasvirini o'zida ifoda etdi. Keyinchalik bu g'oyani Skinner boyitdi.

**Shaxsni baholash metodlari.** Shaxsni nazariy o'rganish oqibatida uni baholash metodlari shakllantirildi. Ushbu metodlar o'zining obyektivligi, ishonchliligi va aniqligi bilan farq qiladi. Metodlar o'z navbatida shaxsni o'rganish nazariyalariga muvofiqdir. Bugungi kunda shaxsni baholashda asosiy yondashuvlar quyidagi tadqiqot metodlariga tayanadi:

O'zi haqida hisob berish yoki obyektiv materiallar orqalii baholash;

proektiv metodlar;

klinik intervyu;

xulq-atvorni baholash vositalari;

**Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash:** Shaxsning tipi va qirrasini bir insonning boshqasidan farq qilish imkoniyatini beradi.

*Nomotetik yondashuv-* guruhdagi insonlarni bir-birini biror bir xususiyati yoki shaxslilik qirrasiga ko'ra qiyosiy o'rganish.

*Ideografikk yondashuv-* bir insonni boshqa kishilar bilan qiyoslarnasdan o'rganish.

**Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari:**

*Veriflkatsiya*- nazariyaning empirik jihatdan tekshirilganligi va uning tasdiqlanganligi.

*Keng qamrovli ekanligi* - yaxshi nazariya boshqalari bilan bir xil sharoitda xulq-atvor fenomenlarini keng spektrda tushuntirishi.

*Tatbiqiy qiymatga egalik* - nazariya, inson hayotiy inikoniyatlarini oshirish uchun amaliy istiqbollarni tavsiya etish.

Mashhur psixolog olimlarimizning bir qancha shaxsga oid nazariyalari:

Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosida bolalik va ongsiz shahvoniylik motivlari shaxsga ta'sir ko'rsatishi tahlili taqdim etilgan. Gumanistik psixologiya yondashuvida esa shaxsning o'sishi va o'zining "Men"ini shakllantirishida ichki imkoniyatlarning o'rm yuqori ekanligi ilgari suriladi. Bunday klassik yondashuvlar inson tabiatini yoritishning keng istiqbolini taqdim etadiki, ular yaqqol shaxslilik aspektdan ilmiy izlanishlar olib borishga xizmat qilmoqda. Shaxs muammosini o'rganishga doir zamonaviy tadqiqotlar muammoni shaxslilik, biologik jihatdan o'rganyapdilar. Ularning asosiy me'zonlari inson bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuviga ham tayanadi. Shuningdek, ular qadr-qimmat, og'ishlar, madaniy muhit ta'siri va boshqa jihatlar, xususan, ongsizlikni ham o'rganishmoqda.

Gordon Allport — XX asrning taniqli amerikalik psixologi bo'lib, shaxs psixologiyasiga oid asosiy g'oyalari bilan mashhurdir. U shaxsni biologik emas, balki ijtimoiy-psixologik mavjudot sifatida tahlil qilgan va har bir insonning noyoblighi va ichki mustaqilligini ta'kidlagan.

Allportning nazariyasi dispozitsional yondashuv deb ataladi, chunki u shaxsni ichki barqaror xususiyatlar — dispozitsiyalar asosida tahlil qiladi.

1. Dispozitsiyalar nazariyasi. Allport shaxsni tushunishda dispozitsiya degan atamani markazga qo'yadi. Dispozitsiya — bu insonning xatti-harakatida doimiy tarzda namoyon bo'ladigan ichki sifat yoki moyillikdir. Ularni uch darajaga ajratadi: Kardinal dispozitsiya – inson hayotining deyarli barcha jabhasiga ta'sir qiluvchi asosiy sifat (masalan, fanatizm, g'urur). Markaziy dispozitsiyalar – kundalik hayotda tez-tez namoyon bo'ladigan asosiy xususiyatlar (masalan, halollik, jur'at, aqlli bo'lish). Ikkinchi darajali dispozitsiyalar – konkret vaziyatda paydo bo'ladigan, lekin har doim emas (masalan, sahnada uyatchanlik yoki ba'zan achchiqlik).

2. Funktsional avtonomiya .Allportning muhim g'oyalaridan yana biri — funksional avtonomiya tushunchasidir. Unga ko'ra, insonning harakatlari boshlang'ich motivlardan vujudga kelgan bo'lsa ham, vaqt o'tishi bilan ular mustaqil maqsadga aylanadi. Masalan, bir kishi dastlab pul uchun sport bilan shug'ullangan bo'lishi mumkin, lekin keyinchalik sport hayotining mazmuniga aylanadi.

3. Shaxsning yetukligi. Allport sog'lom shaxsning asosiy belgilarini ham ko'rsatib o'tgan. Unga ko'ra, yetuk shaxs quyidagilarga ega bo'ladi:

\*Keng qamrovli hayotiy qiziqishlar ,

\*Ichki integratsiya va mustaqil axloqiy qadriyatlar,

\*Realistik dunyoqarash,

\* O'zini tanish va o'z harakatlariga javobgarlik.

Karl Gustav Yung — shveysariyalik psixiatr va psixoanalitik bo'lib, u Zigmund Freydning izdoshi sifatida faoliyat boshlagan, ammo keyinchalik mustaqil yo'l tutib, analitik psixologiya maktabiga asos solgan.

Yung shaxs psixologiyasiga tubdan yangicha qarashlar olib kirgan va inson ruhiyatini chuqur qatlamlar asosida tahlil qilgan.

1. Shaxs tuzilmasi Yungga ko'ra, shaxs quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Ong (conscious) – hozirgi paytda anglanayotgan fikr, hissiyot va xatti-harakatlar sohasi.

Shaxsiy ongsizlik (personal unconscious) – shaxsga oid unutilgan yoki anglanmagan tajribalar.

Kollektiv ongsizlik (collective unconscious) – insoniyat tarixida shakllangan, barcha odamlarga xos bo'lgan arxetipik tasavvurlar va tajribalar qatlamidir. Bu Yung nazariyasining eng muhim qismidir.

2. Arxetiplar tushunchasi .Yung kollektiv ongsizlikda mavjud bo'lgan arxetiplarni inson ruhiy hayotining tub mohiyati deb biladi.

Arxetiplar — bu qadimiy, tug'ma obrazlar bo'lib, ular har bir inson ruhiyatida mavjud. Asosiy arxetiplar: Anima va Animus – har bir erkakda mavjud ayollik boshlang'ichi (anima) va har bir ayolda erkaklik boshlang'ichi (animus). Soyabon (Shadow) – insonning ijtimoiy qabul qilinmagan, yashiringan jihatlari. Ota va Ona obrazlari – tarixiy va ruhiy ildizlarga ega arxetiplar. Men (Self) – ichki uyg'unlik va psixik yaxlitlikni ifodalaydigan markaziy arxetip.

3. Shaxsiylashtirish va individuatsiya Yungga ko'ra, sog'lom shaxs o'z hayotiy yo'lida individuatsiya jarayonini bosib o'tadi. Bu — inson o'zining ongsiz tomonlarini anglab, ichki arxetiplar bilan uyg'unlikda yashashni o'rganishidir. Individuatsiya – o'z "Men"ini topish yo'lidir. Bu orqali inson ichki ziddiyatlarni yengib, ruhiy barqarorlikka erishadi.

4. Psixologik turlar Yung shuningdek insonlarni ekstravert va introvert deb ikki asosiy psixik yo'nalishga ajratgan.

Ekstravert – tashqi olamga yo'naltirilgan, faol, ijtimoiy inson.

Introvert – ichki dunyoga, tafakkur va his-tuyg'ulariga ko'proq e'tibor qaratadi.

SHaxsga doir gumanistik nazariyada ikki asosiy yo'nalishlar farqlanadi. Birinchisi, –klinik|| (klinikaga yo'naltirilgan) amerikalik psixolog K.Rodjers qarashlarida o'z ifodasini topgan yo'nalish. Ikkinchisi –motivatsion|| yo'nalish. Uning asoschisi amerikalik psixolog A.Maslou dir. mazkur ikki yo'nalish o'rtasida muayyan tafovutlar bo'lsa-da, ularni bog'lab turgan jihatlari ko'p uchraydi. Gumanistik psixologiya yo'ndashuvi vakillari shaxs taraqqiyotining asosiy manbai, deb avtoaktualizatsiyaga bo'lgan tug'ma moyilliklarni nazarda tutadilar. SHaxs taraqqiyoti ,deb ushbu tug'ma moyilliklarning namoyon bo'lishiga aytishadi.K.Rodjersga fikriga ko'ra, inson psixikasida ikki tug'ma moyillik mavjud.

Birinchisi, muallif tomonidan –avtoaktualizatsiya tendentsiyasi|| deb nomlangan moyillik inson shaxsining bo'lajak xususiyatlari negizini o'zida jo etgan.

Ikkinchi tug'ma moyillik – –organizmik nazorat jarayoni|| –shaxs taraqqiyotini idora etuvchi mexanizmdir. Mazkur moyilliklar asosida odam taraqqiyoti davomida –"Men"ning alohida shaxsga doir tuzilmasi paydo bo'ladi.

A.Maslou shaxs taraqqiyoti negizida yotadigan ehtiyojlarning ikki ko'rinishini ajratib bergan: ularni qondirish mobaynida o'z-o'zidan yo'qolib ketadigan «defitsitar» ehtiyojlar hamda qondirilishi ularni kuchaytiruvchi –o'sishga doir ehtiyojlar.

Ehtiyoj — bu insonda biror narsa yetishmasligidan paydo bo'ladigan ichki ruhiy yoki jismoniy holat bo'lib, uni qondirishga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantiradi.

Misol uchun; Jismoniy ehtiyoj: Odam uzoq vaqt ovqat yemasa, ochlik his qiladi. Bu — oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj. U odamni ovqat izlashga undaydi. Ijtimoiy ehtiyoj: Bola mehr va e'tibordan mahrum bo'lsa, u do'stlik yoki muhabbat izlay boshlaydi. Bu — muloqot va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj.

Maslou fikriga ko'ra, motivatsiyaning besh darajasi mavjud:

- 1) fiziologik (oziqlanish, uxlash ehtiyojlari);
- 2) himoyalanganlik ehtiyoji (uy-joyga ega bo'lish, ish joyiga ehtiyoj);
- 3) bir insonning boshqa bir insonga nisbatan ehtiyojini ifodalovchi mansublik ehtiyoji, masalan, oila qurishga;
- 4) o'zini-o'zi baholash ehtiyoji (o'zini hurmat qilish, o'z g'ururini saqlash);
- 5) avtoaktualizatsiya ehtiyoji (ijod qilish, go'zallikka intilish, to'kis bo'lish kabi metaehtiyolar).

Motivatsiya — bu inson faoliyatining kelib chiqishi, yo'nalishi, davomiyligi va kuchiga ta'sir qiluvchi ichki omillar majmui.

Misol uchun: Talaba imtihondan yaxshi baho olishni istaydi (maqsad), chunki oliy o'quv yurtiga kirishni xohlaydi (ehtiyoj). Bu istak unga har kuni dars tayyorlash uchun kuch beradi — bu motivatsiyadir.

Sahxsga xos bo'lgan yana bir tushuncha bu Qobiliyatdir.

Qobiliyat — bu insonning bilim, ko'nikma va malakalarni tez, chuqur va samarali egallashiga hamda ularni amalda qo'llay olishiga imkon beruvchi tug'ma va rivojlanadigan psixik sifattir. Misol uchun: Bola musiqiy ohanglarni tez eslab qoladi, turli asboblarda tez o'rganib chalay oladi — bu musiqiy qobiliyat.

Shaxs rivojiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Ularga:

Ijtimoiy-psixologik omillar — bu insonning shakllanishi, o'zini anglashi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tashqi va ichki omillardir. Ular shaxsning ijtimoiy tajriba orttirishi, munosabatlar o'rnatishi, qadriyatlar shakllanishi va axloqiy ong rivojida muhim rol o'ynaydi. Asosiy ijtimoiy-psixologik omillar:

1. Oila muhit Shaxsiyatning dastlabki shakllanishi aynan oilada boshlanadi. Ota-onaning munosabati, mehr, tarbiya uslubi, intizom darajasi shaxsga chuqur psixologik ta'sir qiladi. Masalan, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy muhitda o'sgan bola o'ziga ishonchli va faol bo'ladi.

2. Ta'lim va tarbiya muassasalari Maktab, litsey, oliy o'quv yurtlarida inson bilim, dunyoqarash, axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. O'qituvchilar, tengdoshlar bilan bo'lgan munosabatlar orqali shaxs ijtimoiy rollarni o'rganadi.

3. Tengdoshlar guruhi Shaxsning ijtimoiy moslashuvi va o'zini baholashi do'stlar va yaqin guruh bilan muloqot orqali rivojlanadi. Yaxshi guruhga tegishli bo'lish shaxsda ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi, aksincha — salbiy guruhlar salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

4. Ommaviy axborot vositalari va internet Media vositalari (televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, kino) orqali inson hayotiy qadriyatlar, xatti-harakat namunalarini o'zlashtiradi. Ayniqsa yoshlar orasida internet orqali bo'ladigan ijtimoiy ta'sir shaxs rivojida kuchli rol o'ynaydi.

5. Madaniyat va ijtimoiy muhit Inson yashayotgan jamiyatdagi urf-odatlar, axloqiy me'yorlar, diniy va madaniy qadriyatlar shaxs tafakkuri va xulqiga ta'sir qiladi. Masalan, kollektiv madaniyat ustun bo'lgan jamiyatda insonlar ko'proq jamoaviylikni qadrlaydi.

6. Ijtimoiy mavqe va iqtisodiy sharoit Insonning oilaviy va ijtimoiy mavqei, daromad darajasi, imkoniyatlari uning o'zini anglashiga, o'ziga bo'lgan bahosiga ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa:** Shaxs psixologiyasi — inson ruhiyatining eng murakkab va serqatlam sohalaridan biri bo'lib, uning individualligi, ichki dunyosi, ehtiyojlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini chuqur o'rganadi. Har bir inson o'ziga xos psixologik tuzilishga ega bo'lib, bu tuzilma vaqt o'tishi, tajriba orttirishi va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Maqolada ko'rib chiqilgan nazariyalar — G. Allport, K. Yung va boshqa mutaxassislarining qarashlari shuni ko'rsatadiki, shaxsni to'laqonli tushunish uchun uni faqat biologik yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ichki motivatsiyalari, ongosti jarayonlari va ijtimoiy tajribasi bilan uyg'un holda o'rganish zarur. Shaxsning shakllanishi oila, ta'lim, tengdoshlar, madaniy muhit kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Shaxs psixologiyasini chuqur o'rganish nafaqat nazariy bilimlar uchun, balki amaliy hayotda — ta'lim, tarbiya, kasb tanlash, muomala va o'z-o'zini anglashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Zero, inson o'z shaxsini tushunmasdan turib, jamiyatda to'laqonli yashay olmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Shaxs Psixologiyasi va Kouching. S.N.Jo'rayeva, M.A.Norbosheva Toshkent-2022
- 2) Shaxs Psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi. Namangan Davlat Universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrasida. Namangan-2019
- 3) Umumiy psixologiya. E.G'oziyev Toshkent-2010
- 4) Ontogenez psixologiya. E.G'oziyev Toshkent-2010